

Baxtiyor Umarov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrasi dotsenti (v.b.)
E-mail: Baxtiyorumar@gmail.com*

O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI: AN'ANA VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Annotatsiya. Maqolada o'zbek milliy musiqa san'atining tarixiy ildizlari, an'anaviy shakllari hamda zamonaviy taraqqiyot bosqichlari tahlil qilinadi. Xususan, maqom san'ati, xalq og'zaki ijodi, bastakorlik an'analari va mumtoz musiqa merosining bugungi kundagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalar va zamonaviy estrada yo'nalishining milliy musiqa san'ati rivojiga ta'siri ko'rib chiqiladi. An'ana va innovatsiya uyg'unligi o'zbek musiqa san'atining barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: an'ana, zamonaviy, tendensiya, modernizatsiya, ashula, maqom, musiqa, ijtimoiylashuv, jamiyat, islohot, natija.

UZBEK NATIONAL MUSIC ART: TRADITION AND MODERN TRENDS

Abstract. The article analyzes the historical roots, traditional forms, and contemporary stages of development of Uzbek national musical art. Particular attention is given to the significance of the maqom tradition, oral folk creativity, compositional practices, and the classical musical heritage in the present cultural context. The study also examines the impact of globalization processes, digital technologies, and contemporary popular music on the development of national musical art. The harmony between tradition and innovation is evaluated as a key factor ensuring the sustainable development of Uzbek musical art.

Keywords: tradition, modernity, trend, modernization, song, maqom, music, socialization, society, reform.

O'zbek milliy musiqa san'ati xalqimizning ko'p asrlik tarixiy, ma'naviy va madaniy tajribasini o'zida mujassam etgan bebaho merosdir. U nafaqat estetik zavq

manbai, balki milliy o'zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlarni saqlash va avloddan-avlodga yetkazish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir xalqning madaniy taraqqiyoti uning musiqa san'atida o'z ifodasini topadi. O'zbek musiqasi ham Sharq musiqiy tafakkurining ajralmas qismi bo'lib, maqom tizimi, xalq qo'shiqlari, marosim kuy-qo'shiqlari va mumtoz bastakorlik an'analari bilan ajralib turadi. Bugungi kunda esa globallashuv jarayoni, texnologik rivojlanish va madaniyatlararo integratsiya milliy musiqa san'atining yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli an'anaviy merosni asrab-avaylash bilan birga uni zamon talablari asosida rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbek milliy musiqasi o'zining ildizlarini qadimiy davrlardan oladi. Xalq og'zaki ijodiga mansub laparlar, yallalar, terma va marosim qo'shiqlari xalqning kundalik hayoti, urf-odatlarini va dunyoqarashini aks ettiradi. Mumtoz musiqa san'atining yuksak namunasi sifatida Shashmaqom alohida o'rin tutadi [1]. U murakkab tizim, ritmik tuzilma va falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi. Shuningdek, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari ham milliy musiqamizning bebaho durdonalaridandir.

An'anaviy musiqa ijrochiligi ustoz-shogird orqali rivojlangan. Bu tizim nafaqat ijrochilik mahoratini, balki musiqiy tafakkur va estetik qarashlarni ham avloddan-avlodga yetkazib kelgan. Oxirgi paytlarda yurtimizda musiqa san'atini rivojlantirishga bo'lgan sa'y-harakatlar anchagina ko'paydi. Davlatimizda milliy musiqa merosimizni muhofaza qilish, takomillashtirish hamda uni xorij minbariga chiqazish yuzasidan ko'plab dolzarb innovatsion harakatlar qilinmoqda. Shu bois, doimiy holda xorijiy maqom san'ati seminari, Samarqandda bo'lib o'tadigan musiqiy festivallar xorijlik vakillar hamda mutaxassislar ishtirokida muntazam ravishda bo'lib o'tmoqda. Hukumat darajasida e'lon qilingan me'yoriy hujjatlarga asoslangan holda musiqiy ta'lim jarayoni rivojlantirilmoqda, yangidan-yangi zamonaviy maktablar, oliy ta'lim muassasalari tashkil etilmoqda. Zero, "Zamonaviy musiqa estetikasi dinamizm, eksperimentallik va individuallik bilan tavsiflanadi.

Ijrochilar sahna madaniyati, vizual effektlar va multimedia vositalaridan” keng foydalanadilar [2]. Raqamli texnologiyalar musiqa ishlab chiqarish, marketing va iste'mol qilish jarayonlarini o'zgartiradi. Bu esa musiqa industriyasining yangi modelini shakllantiradi. Shu bilan birga, mualliflik huquqi va sifat mezonlari bilan bo'g'liq muammolar ham yuzaga kelmoqda. Alqissa, ushbu madaniy meros faqatgina tarix tuhfasidir emas, balki zamonaviy rivojlanish va milliy qadriyatlarni anglashning muhim elementidir.

XX asrda o'zbek musiqa san'atida yangi bosqich boshlandi. Kompozitorlik maktabi shakllandi va milliy musiqa Yevropa musiqiy shakllari bilan uyg'unlashdi. Muxtor Ashrafiy, Sulaymon Yudakov, Mutal Burxonov kabi bastakorlar milliy ohanglarni simfonik va operaviy janrlar bilan boyitadilar. Natijada o'zbek operasi, baleti va simfonik musiqasi vujudga keldi. Bu jarayon milliy musiqa san'atining professional yo'nalishida rivojlanishiga xizmat qildi.

Bugungi kunda o'zbek milliy musiqa san'ati yangi bosqichda rivojlanmoqda. Estrada, pop-musiqa, jaz va rok yo'nalishlarida milliy ohanglardan foydalanish kengaymoqda. Zamonaviy kompozitor va xonandalar an'anaviy kuy va maqom elementlarini yangi aranjirovka asosida taqdim etmoqdalar. Raqamli texnologiyalar, internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlar musiqa targ'ibotining yangi imkoniyatlarini yaratdi. Bu esa milliy musiqa namunalari xalqaro maydonga chiqishiga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, globallashtirish jarayonida milliylikni saqlab qolish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy musiqa shakllarini buzmasdan, ularni zamonaviy talqin asosida rivojlantirish ijodkorlar oldida turgan dolzarb vazifadir.

Xorijda hozirgi kunda musiqa san'ati rivojlanishiga oldinlari kuzatilmagan darajada yuksak e'tibor berilmoqda. Musiqa san'ati badiiy ifodalovchi vosita bo'libgina qolmay, bundan tashqari jamiyatga xos, falsafiy hamda didaktik ta'sir imkoniyatiga xos bo'lgan mafkuraviy omil singari e'tibor qozonmoqda. Jahon xalqaro tashkiloti hisoblangan YUNESCONing musiqa dargohlari hamda musiqiy merosni avaylashga yo'naltirilgan tadbirlar qabul qilingan bo'lib, bundan bilishimiz

mumkinki, ushbu soha dunyoviy miqyosda ahamiyatga ega [3, 215-b]. Bundan tashqari yoshlarning ichida ommalashib borayotgan musiqasining zamonaviy ko'rinishlari va turlari jamiyatning tarbiyaviy, ijodiy, madaniy-ma'rifiy, ma'naviy, dunyosiga sezilarli darajada ta'sir etmoqda. Shu tufayli ham dunyodagi har bitta millat o'ziga tegishli bo'lgan musiqa bilan bog'liq merosini muhofaza qilish, uni axborot texnologiyalari va raqamlashtirish orqali takomillashtirish bilan umumiy musiqiy jarayonda o'z pozitsiyasini saqlab qolishi kerak.

Dunyo mamlakatlarining ilg'or davlatlarida musiqa san'ati bilan bog'liq ommaviy miqyosda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar diqqatga sazovor. Ayniqsa, ijtimoiy gumanitar fanlar yo'nalishida musiqa san'ati nafaqat estetik omil bo'lib, balki xalqimiz turmush tarzi va faoliyati sifatida o'rganilmoqda. Zamonaviy musiqa yoshlarning dunyoqarashi, estetik didi va ijtimoiy faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiqlar matni, kliplar mazmuni va sahna obrazlari yoshlar ongida ma'lum qadriyatlarni shakllantiradi. Shu sababli zamonaviy musiqa san'atini rivojlantirishda milliy qadriyatlar, ma'naviy mezonlar va badiiy saviya muhim o'rin tutishi lozim. Bugungi imkoniyatlar orasida musiqa san'atining odatiy va yangi tarmoqlarini tahliliy ifodalash, har xil madaniyatlardagi musiqaning o'ziga xosliklarini birlashuvi hamda ommaviy madaniy vaziyatlardagi integratsiyani tadqiq etish muhim sanalmoqda [4, 79-b]. Hozirgi kunda musiqa umumiy ijtimoiy hodisa, hamjamiyatlar orasida madaniy diplomatiya omili singari ko'rilmogda.

O'zbek milliy musiqa san'ati boy tarixiy merosga ega bo'lib, u xalqimizning ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadi. An'anaviy maqom san'ati, folklor namunalari va bastakorlik maktabi milliy musiqaning mustahkam poydevorini tashkil etadi. Zamonaviy tendensiyalar esa ushbu merosni yangi shakl va mazmun bilan boyitmoqda. An'ana va innovatsiyaning uyg'unligi o'zbek musiqa san'atining istiqboldagi taraqqiyotini belgilab beradi. Milliy musiqa san'atini asrab-avaylash, ilmiy o'rganish va zamon talablari asosida rivojlantirish kelajak avlodlar oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Sharq taronalari" o'n uchinchi xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimidagi nutqi // <https://president.uz/uz/lists/view/7498>
2. Madrimov B. O'zbek musiqa tarixi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 240 b.
3. Tursunova L. Yoshlar musiqa madaniyatini tadqiq etishning dolzarb vazifalari//Международный научный журнал. «Новости образования: исследование в XXI веке». – 2023. – № 11 (100), часть 2. – B. 657.
4. Rahmonova H. Musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri qadimgi dunyo olimlarining qarashlarida//New innovations in national edication (nine). – 2022. – № 9. – B.79.